Аннотация. В статье проведён анализ рынка валютных операций, предоставляемых физическим лицам в Узбекистане. За 2020–2024 годы изучен рост количества пунктов обмена валюты и автоматизированных валютных банкоматов, а также объёмы продажи и покупки иностранной валюты. Результаты исследования показывают, что спрос на продажу валюты среди физических лиц значительно превышает спрос на её покупку. Кроме того, объёмы трансграничных денежных переводов через P2P онлайн-платформы и традиционные банки заметно увеличились, что свидетельствует об активизации финансовой интеграции на основе цифровых технологий и мобильных платформ. В статье представлены научные и практические рекомендации по повышению эффективности деятельности коммерческих банков и расширению финансовой интеграции национальной экономики посредством цифровизации валютных операций, обеспечения безопасности и создания удобств для клиентов.

Ключевые слова: валютные операции, физические лица, коммерческие банки, трансграничные переводы, P2P онлайн-услуги, пункты обмена валюты, банкоматы.

KIRISH

Hozirgi davrda jahon iqtisodiyotida global moliyaviy integratsiya jarayonlarining jadal kechayotgani bank tizimining, ayniqsa tijorat banklarining faoliyatida valyuta operatsiyalarining ahamiyatini sezilarli darajada oshirmoqda. Xalqaro savdo, mehnat migratsiyasi, turizm va investitsiya jarayonlarining kengayib borishi natijasida jismoniy shaxslar tomonidan valyuta operatsiyalariga bo'lgan ehtiyoj ham ortmoqda. Shu sababli tijorat banklarida jismoniy shaxslarga valyuta xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish mamlakatning moliyaviy barqarorligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.



O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan valyuta bozorini liberallashtirish, moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish siyosati va bank tizimini modernizatsiya qilish choralari mazkur sohaning izchil rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, amaliyotda jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan valyuta xizmatlarini yanada takomillashtirishni talab etuvchi ayrim tizimli masalalar ham mavjud. Jumladan, xizmat ko'rsatish jarayonlarining to'liq avtomatlashtirilmaganligi, mijozlar uchun qulay elektron platformalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, shuningdek valyuta kurslari o'zgaruvchanligi bilan bog'liq tavakkalchiliklarni boshqarish mexanizmlarining samaradorligini oshirish zarurati shular jumlasidandir.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, mobil va internet-banking tizimlari orqali onlayn valyuta operatsiyalarini yo'lga qo'yish, xavfsizlik tizimlarini mustahkamlash hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish madaniyatini yuksaltirish bugungi kunda tijorat banklarining ustuvor strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib bormoqda. Bu nafaqat bank faoliyati samaradorligini oshirish, balki aholi va tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy ehtiyojlarini to'liq qondirishga xizmat qiladigan muhim omildir.

Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarida jismoniy shaxslarga valyuta operatsiyalarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish masalasi jahon moliya bozorlaridagi dinamik o'zgarishlar, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi hamda milliy bank tizimidagi islohotlar kontekstida dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalish hisoblanadi. Mazkur sohani chuqur ilmiy-nazariy tahlil etish va amaliy takliflar ishlab chiqish tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish, mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga hissa qo'shish hamda moliyaviy tizim samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda jahon moliyaviy tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar, xalqaro savdo hajmining ortishi hamda valyuta bozorlarining liberallasuvi tijorat banklari faoliyatida valyuta operatsiyalarini samarali tashkil etish masalasini dolzarb yo'nalishlardan biriga aylantirdi. Xususan, jismoniy shaxslar bilan bog'liq valyuta xizmatlari ko'lamining kengayishi, elektron va onlayn operatsiyalar ulushining ortishi, xalqaro to'lov tizimlariga integratsiya jarayonlarining faollashuvi bu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish zaruratini yuzaga keltirdi.

Iqtisodiy adabiyotlarda valyuta operatsiyalari bank faoliyatining eng muhim tarkibiy qismi sifatida ta'riflanib, ular milliy iqtisodiyotning tashqi iqtisodiy aloqalarini ta'minlovchi asosiy omil sifatida qaraladi (Mishkin F., 2019; Kryuger A., 2020). Valyuta operatsiyalarining iqtisodiy mohiyati — xalqaro hisob-kitoblar, kapital harakati va investitsiya jarayonlaridagi munosabatlarni ta'minlash bilan bog'liq bo'lib, ular bank tizimida likvidlik, barqarorlik va daromadlilikni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyotida tijorat banklarining valyuta xizmatlari bozorini rivojlantirishda ikki asosiy yondashuv kuzatiladi: birinchisi — valyuta siyosati va nazorat tizimini liberallashtirish orqali bozorni ochish; ikkinchisi — raqobat va innovatsiyalar asosida mijozlarga qulay xizmatlar ko'rsatishni ta'minlashdir (IMF Country Report, 2024). Xalqaro valyuta fondi va Jahon bankining tahlillariga ko'ra, valyuta bozorini tartibga solishda qonunchilik barqarorligi, ochiqlik va valyutaning erkin konvertatsiyasini ta'minlash asosiy shartlardan biridir.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, xususan 2017-yildagi valyuta siyosatining liberallasuvi, jismoniy shaxslarga valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda yangi imkoniyatlar yaratdi. Markaziy bankning rasmiy hisobotlariga ko'ra, milliy valyutani erkin konvertatsiya qilish, tijorat banklarida onlayn konvertatsiya xizmatlarini joriy etish hamda xorijiy valyutada hisoblar ochish imkoniyatlari jismoniy shaxslarning moliyaviy faolligini sezilarli darajada oshirdi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga (Qonun, 2019) ko'ra, valyuta operatsiyalari — valyuta qimmatliklariga bo'lgan mulk huquqlari va boshqa huquqlarning o'tishi bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar, shuningdek, valyuta qimmatliklaridan to'lov vositasi sifatida foydalanish, ularni O'zbekiston Respublikasiga olib kirish, jo'natish, o'tkazish hamda mamlakatdan olib chiqish yoki jo'natish bilan bog'liq faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Ushbu islohotlar natijasida valyuta ayirboshlash shoxobchalari soni ortdi, mobil banking orqali konvertatsiya xizmatlari faollashdi, xalqaro pul o'tkazmalari hajmi esa barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qildi (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2023). Shu bilan birga, onlayn operatsiyalarda axborot xavfsizligini ta'minlash, AML/CFT (pul yuvishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash) talablariga rioya etish hamda mijozlarni identifikatsiya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Xalqaro tadqiqotlarda (De Grauwe P., 2018; Obstfeld M. & Rogoff K., 2020) valyuta bozorlarida jismoniy shaxslar ishtiroki "riteyl valyuta bozori" deb ta'riflanadi. Ushbu bozor segmentida mijoz xulq-atvori, xavfsizlik, axborot shaffofligi va xizmat ko'rsatish sifati muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar (Valiyev U., 2022; Boltaev T., 2022) o'z tadqiqotlarida bank xizmatlarining raqamlashtirilishi va valyuta operatsiyalarini optimallashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Ularning fikricha, jismoniy shaxslar uchun valyuta xizmatlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: xizmat ko'rsatish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish; mobil ilovalar orqali onlayn konvertatsiya tizimlarini takomillashtirish; valyuta kurslari bo'yicha ma'lumotlarni avtomatik yangilab borish; mijozlar xavfsizligini kafolatlash; xizmat ko'rsatish madaniyatini yuksaltirish.

Yangi avlod texnologiyalari — fintech, blockchain va API-integratsiya yechimlari valyuta operatsiyalarining samaradorligini oshirmoqda. Xususan, mobil banking ilovalari orqali onlayn konvertatsiya qilish, xalqaro to'lovlarni avtomatlashtirish va raqamli autentifikatsiya vositalarini qo'llash valyuta operatsiyalarini yanada tezkor, qulay va xavfsiz shaklga keltirmoqda (KPMG, 2022; Deloitte, 2023).

O'zbekistonda bu boradagi dastlabki amaliy natijalar 2020–2023-yillar davomida kuzatildi. Shu yillarda aksariyat tijorat banklari “Internet-banking” va “Mobil-banking” xizmatlari orqali valyuta ayirboshlash imkoniyatlarini yaratdi. Hozirgi bosqichda xalqaro standartlarga mos xavf boshqaruvi tizimlarini takomillashtirish hamda kiberxavfsizlik mexanizmlarini kuchaytirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, valyuta operatsiyalarini takomillashtirish nafaqat banklarning daromadlilikini oshiradi, balki aholi moliyaviy savodxonligini yuksaltiradi va iqtisodiy faollikni kengaytiradi. Raqamli valyuta xizmatlari orqali fuqarolar xalqaro to'lovlar, investitsiya va turizm sohalarida faolroq ishtirok etmoqda (World Bank, 2021). Bu esa milliy iqtisodiyotning ochiqligi va moliyaviy integratsiya darajasini oshiradi.

O'zbekiston sharoitida tijorat banklari jismoniy shaxslarga valyuta operatsiyalarini ko'rsatishda raqobat muhitini kuchaytirish orqali sifatli, innovatsion va xavfsiz xizmatlarni taklif etish imkoniyatlariga ega. Bu jarayonda davlatning tartibga soluvchi rolini optimallashtirish, bank infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda kadrlar salohiyatini oshirish mamlakat moliya tizimi barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari jismoniy shaxslarga valyuta operatsiyalariga oid xizmatlarni ko'rsatish jarayonida O'zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to'g'risida” O'RQ-573-son Qonuni¹, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5177-son Farmoni², shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari” va boshqa tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga qat'iy rioya etishlari lozim.

Tijorat banklarida jismoniy shaxslarga naqd xorijiy valyutani oldi-sotdi qilish xizmatlari valyuta ayirboshlash shoxobchalari hamda avtomatlashtirilgan valyuta ayirboshlash bankomatlari orqali amalga oshiriladi. Ushbu yo'nalishda so'nggi yillarda sezilarli rivojlanish kuzatilib, aholiga valyuta xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatlari tobora kengaymoqda (1-jadval).

1-jadval. Valyuta ayirboshlash shoxobchalari sonining o'zgarish dinamikasi (2020–2024-yillar)

| № | Ko'rsatkichlar | 2020-y | 2021-y | 2022-y | 2023-y | 2024-y | 2024-yilda 2020-yilga nisbatan o'zgarish | |
|---|---|--------|--------|--------|--------|--------|---|-------|
| | | | | | | | soni | % da |
| 1 | Valyuta ayirboshlash shoxobchalari | 1358 | 1906 | 2174 | 2633 | 2798 | 1440 | 106,0 |
| 2 | Avtomatlashtirilgan valyuta ayirboshlash bankomatlari | 1306 | 1572 | 2059 | 2549 | 3414 | 2108 | 161,4 |
| 3 | Jami | 2664 | 3478 | 4233 | 5182 | 6212 | 3548 | 133,2 |

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yilgi Yillik hisoboti asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 22.10.2019 yildagi O'RQ-573-son <https://lex.uz/docs/-4562834>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.09.2017 yildagi PF-5177-son <https://lex.uz/docs/-3326421?ONDATE=09.07.2020>



Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2020–2024-yillar davomida O'zbekistonda valyuta ayirboshlash shoxobchalari hamda avtomatlashtirilgan valyuta ayirboshlash bankomatlari soni izchil va sezilarli darajada oshgan.

Xususan, 2020-yilda 1 358 ta bo'lgan valyuta ayirboshlash shoxobchalari soni 2024-yilda 2 798 taga yetgan bo'lib, 2020-yilga nisbatan 106 foizga o'sish kuzatilgan. Ushbu ko'rsatkichdan kelib chiqadiki, an'anaviy shoxobchalar sonida barqaror o'sish saqlanib qolgan, biroq ularning o'sish sur'ati avtomatlashtirilgan bankomatlarga nisbatan pastroq.

Shu bilan birga, avtomatlashtirilgan valyuta ayirboshlash bankomatlari soni 2020-yilda 1 306 tadan 2024-yilda 3 414 taga yetib, 161,4 foiz o'sishni tashkil etgan. Ushbu natija tijorat banklari tomonidan texnologik avtomatlashtirishni kengaytirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda mijozlarga tezkor va qulay valyuta xizmatlarini taqdim etishga qaratilgan investitsiyalarning samaradorligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 2020-yilda 2 664 ta bo'lgan jami valyuta ayirboshlash nuqtalari soni 2024-yilda 6 212 taga yetgan. Bu esa 133,2 foizlik o'sishni anglatadi. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatda valyuta xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borayotganini, banklar esa bu talabni qondirish maqsadida xizmat tarmoqlarini izchil kengaytirayotganini ifodalaydi.

O'zbekistonda jismoniy shaxslar uchun valyuta ayirboshlash infratuzilmasining 2020–2024-yillardagi o'sish dinamikasi, mamlakatda valyuta operatsiyalariga bo'lgan ehtiyoj va moliyaviy faollikning yildan-yilga ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, avtomatlashtirilgan bankomatlar sonining an'anaviy shoxobchalarga nisbatan tezroq o'sishi bank tizimida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, mijozlar uchun qulayliklarni kengaytirish hamda xizmatlar sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi. Bu tendensiya tijorat banklari uchun operatsiyalarni avtomatlashtirish, mijozlar qoniqishini oshirish va raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish yo'nalishida istiqbolli strategik imkoniyat sifatida qaraladi (2-jadval).

2-jadval. Valyuta ayirboshlash operatsiyalari hajmlarining dinamikasi (2023–2024-yillar), mln AQSh dollari

| № | Ko'rsatkichlar | 2023-y | 2024-y | O'tgan yilga nisbatan o'zgarish | |
|---|--|--------|--------|---------------------------------|-------|
| | | | | (mln doll.) | % da |
| 1 | Jismoniy shaxslar tomonidan sotilgan xorijiy valyuta | 12340 | 16108 | 3768 | 130,5 |
| 2 | Jismoniy shaxslar tomonidan xarid qilingan xorijiy valyuta | 9141 | 9389 | 248 | 102,7 |
| 3 | Farqi | 1399 | 6719 | 5320 | 480,3 |

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yilgi Yillik hisoboti asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2023–2024-yillar davomida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan valyuta ayirboshlash operatsiyalari hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilmoqda.

Xususan, jismoniy shaxslar tomonidan sotilgan xorijiy valyuta hajmi 2023-yilda 12 340 mln AQSh dollarini, 2024-yilda esa 16 108 mln AQSh dollarini tashkil etgan. Bu esa 2023-yilga nisbatan 130,5 foiz o'sish demakdir. Ushbu ko'rsatkich aholining valyuta ayirboshlash xizmatlariga bo'lgan talabining ortib borayotganini hamda banklar tomonidan valyuta sotish faoliyatining yanada faollashganini ko'rsatadi.

Jismoniy shaxslar tomonidan xorijiy valyuta xaridi hajmi esa 2023-yilda 9 141 mln AQSh dollari bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 9 389 mln AQSh dollariga yetgan. Bu 2023-yilga nisbatan 102,7 foizlik o'sishni bildiradi. Ushbu natija valyuta xaridi hajmining nisbatan barqarorligini aks ettirib, jismoniy shaxslar asosan xorijiy valyutani sotish operatsiyalariga ko'proq e'tibor qaratayotganini anglatadi.

Farq tahliliga ko'ra, 2023-yilda 1 399 mln AQSh dollari bo'lgan saldo 2024-yilda 6 719 mln AQSh dollariga yetgan. Bu esa 480,3 foizlik o'sishni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich jismoniy shaxslar tomonidan xorijiy valyutani sotishga bo'lgan talabning yuqoriligini hamda ichki valyuta bozorida faollikning ortib borayotganini tasdiqlaydi. Bunday natijalar iqtisodiyotda valyuta aylanmasining kengayib borayotganidan, bank tizimining esa ushbu jarayonda faol ishtirok etayotganidan dalolat beradi.

Sotish hajmining xarid hajmiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lishi jismoniy shaxslar orasida valyuta savdosiga bo'lgan faol ehtiyojning mavjudligini ko'rsatadi. Bu holat banklar tomonidan valyuta operatsiyalarini yanada takomillashtirish, nazorat tizimlarini takomillashtirish va mijozlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan siyosatni amalga oshirish zarurligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, ushbu tendensiya avtomatlashtirilgan valyuta ayirboshlash bankomatlari hamda onlayn platformalar orqali operatsiyalarni samarali tashkil etish uchun yangi strategik imkoniyatlar ochmoqda.

Jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan valyuta xizmatlari tarkibida muhim o'rinlardan birini transchegaraviy pul o'tkazmalari egallaydi. Ushbu operatsiyalar hajmining ortib borishi aholining xorijdagi mehnat faoliyati, xalqaro savdo aloqalari va moliyaviy integratsiyaning kuchayib borayotganidan dalolat beradi (3-jadval).

3-jadval. Transchegaraviy pul o'tkazma tizimlari kesimida tahlil (2023–2024-yillar), mln AQSh dollari

| № | Ko'rsatkichlar | 2023-y | 2024-y | O'tgan yilga nisbatan o'zgarish | |
|---|--------------------------------|--------|--------|---------------------------------|-------|
| | | | | mln. doll | % da |
| 1 | Xalqaro pul o'tkazma tizimlari | 7136 | 8161 | 1025 | 114,4 |
| 2 | P2P (onlayn) pul o'tkazmalar | 3924 | 5916 | 1992 | 150,8 |
| 3 | Bank o'tkazmalari | 367 | 774 | 407 | 210,9 |
| 4 | Jami | 11427 | 14851 | 3424 | 130,0 |

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yilgi Yillik hisoboti asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda transchegaraviy pul o'tkazmalari hajmi 2023-yilga nisbatan barqaror va sezilarli darajada o'sdi.

Xususan, xalqaro pul o'tkazma tizimlari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi 2023-yilda 7 136 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 8 161 mln AQSh dollariga yetgan. Bu 1 025 mln AQSh dollari yoki 14,4 foiz o'sishni anglatadi. Ushbu o'sish, asosan, an'anaviy transchegaraviy xizmatlardan foydalanishdagi barqarorlik, ishonch darajasining ortishi va aholining xalqaro moliyaviy xizmatlardan kengroq foydalanishi bilan izohlanadi.

P2P (onlayn) pul o'tkazmalari segmenti esa eng yuqori o'sishni namoyon etdi. 2023-yilda 3 924 mln AQSh dollari miqdorida bo'lgan ko'rsatkich 2024-yilda 5 916 mln AQSh dollariga yetib, 1 992 mln dollarlik yoki 50,8 foizlik o'sishni qayd etdi. Bu holat raqamli texnologiyalar, mobil platformalar va innovatsion to'lov tizimlarining jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, onlayn xizmatlarga bo'lgan talabning ortib borayotgani, shuningdek global moliyaviy integratsiya jarayonlarining kuchaygani ushbu o'sishni qo'llab-quvvatlovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bank o'tkazmalari hajmi ham sezilarli o'sish tendensiyasini namoyon etdi. 2023-yilda 367 mln AQSh dollari bo'lgan bank o'tkazmalari hajmi 2024-yilda 774 mln AQSh dollariga yetgan bo'lib, bu 210,9 foiz o'sishni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich tijorat banklariga bo'lgan ishonchning ortganini, an'anaviy moliyaviy institutlar orqali pul jo'natishning ahamiyati oshib borayotganini hamda ularning xizmatlari raqamli transformatsiya sharoitida samarali moslashayotganini ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, nisbiy o'sish ulushi yuqori bo'lishiga qaramay, hajm jihatidan bank o'tkazmalari P2P tizimlari va xalqaro pul o'tkazma kanallariga nisbatan hali kichik ulushni egallaydi.

Umuman olganda, jami transchegaraviy pul o'tkazmalari hajmi 2023-yilda 11 427 mln AQSh dollaridan 2024-yilda 14 851 mln AQSh dollariga yetib, 3 424 mln AQSh dollari yoki 30 foiz o'sishni tashkil etdi. Ushbu o'sish mamlakatda raqamli transformatsiyaning jadallashuvi, xalqaro moliyaviy aloqalarning faollashuvi hamda transchegaraviy to'lov tizimlarining kengayib borayotganini yaqqol ko'rsatadi.

2023–2024-yillar davomida transchegaraviy pul o'tkazmalari hajmining barqaror o'sish tendensiyasi kuzatildi. Eng tez rivojlanayotgan segment sifatida P2P onlayn pul o'tkazmalari ajralib turadi. Ushbu yo'nalishdagi o'sish nafaqat raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlab borayotganini, balki xalqaro moliyaviy integratsiya jarayonlarining chuqurlashayotganini ham ifodalaydi. Banklar orqali amalga oshirilgan pul o'tkazmalari ham ijobiy dinamikani namoyon etib, an'anaviy moliyaviy institutlarning raqamli rivojlanish jarayonlariga muvaffaqiyatli moslashayotganini ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, tahlil qilingan ma'lumotlar O'zbekistonning transchegaraviy moliya bozorida raqamlashuv va globallashtirish jarayonlari faol kechayotganini, bu esa iqtisodiyotning ochiqqligi va moliyaviy tizim barqarorligining ortib borayotganini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi kunda O'zbekistonda jismoniy shaxslarga ko'rsatilayotgan valyuta operatsiyalari bozori barqaror rivojlanish bosqichiga kirgan bo'lib, so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda sezilarli natijalar kuzatilmoqda. 2020–2024-yillar mobaynida valyuta ayirboshlash shoxobchalari va avtomatlashtirilgan valyuta bankomatlari sonining izchil o'sishi, shuningdek, valyuta sotish hamda xarid qilish hajmlarining ortib borishi aholi va biznes sub'yektlari orasida valyuta operatsiyalariga bo'lgan talabning tobora kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Jismoniy shaxslar orasida xorijiy valyutani sotish operatsiyalarining hajmi xarid ko'rsatkichlariga nisbatan yuqori



bo'lib, bu ichki valyuta bozorining faolligini va aholining moliyaviy ishtirokini oshib borayotganini bildiradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, transchegaraviy pul o'tkazmalari hajmi ham izchil o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Xususan, P2P onlayn pul o'tkazmalari hajmining 50,8 foizga oshgani raqamli texnologiyalar va mobil platformalar orqali xalqaro moliyaviy integratsiyaning kuchayib borayotganini tasdiqlaydi. Banklar orqali amalga oshirilayotgan an'anaviy o'tkazmalar ham ijobiy o'sish sur'atiga ega bo'lib, bu an'anaviy moliyaviy institutlarning raqamli rivojlanish sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashayotganini anglatadi. Ushbu ko'rsatkichlar tijorat banklari uchun valyuta operatsiyalarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlarini strategik ustuvor yo'nalish sifatida belgilash zarurligini ko'rsatadi. Valyuta operatsiyalarini takomillashtirish jarayoni nafaqat banklarning daromadlilikini va moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, balki aholi hamda biznes sub'yektlarining xalqaro to'lovlar, investitsiya va turizm sohalaridagi faolligini ham sezilarli darajada oshiradi. Shu bois, jismoniy shaxslarga valyuta xizmatlarini ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish uchun mobil va internet-banking platformalarini kengaytirish, bu orqali jismoniy shaxslar uchun valyuta operatsiyalarini qulay va tezkor shaklda amalga oshirish imkonini yaratish; valyuta kurslari va operatsiyalar haqidagi ma'lumotlarni avtomatik yangilash tizimlarini joriy etish, bu orqali mijozlarga doimiy axborot yangiligi va shaffoflikni ta'minlash; risk boshqaruvi tizimlarini kuchaytirish hamda kiberxavfsizlik mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli operatsiyalar xavfsizligini yanada oshirish; innovatsion mahsulot va xizmatlarni yaratish orqali mijozlarga yuqori sifatli va raqobatbardosh moliyaviy yechimlarni taqdim etish; avtomatlashtirilgan valyuta bankomatlari hamda P2P transchegaraviy xizmatlarni rivojlantirish orqali zamonaviy raqamli ekotizimni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shu tariqa, jismoniy shaxslarga valyuta operatsiyalarini takomillashtirish milliy iqtisodiyotning ochiqligini oshirish, moliyaviy integratsiyani kengaytirish va tijorat banklari faoliyatining samaradorligini ta'minlashda muhim strategik ahamiyatga ega bo'lib, ushbu jarayonlar natijasida O'zbekistonning moliyaviy tizimi yanada raqobatbardosh, innovatsion va xalqaro standartlarga mos shaklda rivojlanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi O'RQ-573-son Qonuni. – 2019-yil 22-oktabr. <https://lex.uz/docs/-4562834>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-son Farmoni. – 2017-yil 2-sentabr. <https://lex.uz/docs/-3326421?ONDATE=09.07.2020>
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari" № 3281. – 2020-yil 31-avgust.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot – 2024-yil.
5. Boltaev T. Q. (2022). O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini rivojlantirish istiqbollari. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2(6), 1044–1050.
6. Boltaev T. Q. (2022). O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini rivojlantirish istiqbollari. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, Volume 2, Issue 6.
7. De Grauwe P. (2018). *Exchange Rate Economics: Theories and Evidence*. Oxford University Press.
8. Deloitte. (2023). *FinTech and the Future of Currency Exchange Services*.
9. International Monetary Fund. (2024). *Uzbekistan: Article IV Consultation Report*. Washington, D.C.
10. KPMG. (2022). *Digital Banking and Currency Operations Report*.
11. Krugman P., Obstfeld M., Rogoff K. (2020). *International Economics: Theory and Policy*. Pearson Education.
12. Mishkin F. (2022). *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. Pearson.
13. Valiyev U. G. (2022). O'zbekiston valyuta bozorini liberallashtirish jarayonida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar qanday natija bermoqda? *Moliya va bank ishi jurnali*, 1(2022), 46–48.
14. World Bank. (2021). *Uzbekistan Financial Sector Review*.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100